

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON  
ILLOVA TO'RPLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**F.R.To'xtasinov, M.P.Azimova**

Kartoshka ildizi va uning atrofi tuproqlarida uchraydigan fitonematodalar sistematik tahlili va turlar xilma-xilligi ..... 103

**I.I.Zokirov, A.A.Yoqubov**

Kuzgi tunlamning qishloq xo'jalik ekinlariga ta'siri va O'zbekistonda samarali kurash choralar ..... 106

**B.A.Abduvealiyev, I.I.Zokirov**

Gelmintlarning uy parrandalari bilan biotsenotik aloqalari ..... 109

**T.K.Ortikov, U.B.Shodmonov**

Janubiy Farg'ona tuproqlarining mikrobiologik faolligi va unga turli omillarning ta'siri ..... 115

**A.A.Ma'rupo**

Farg'ona vodiysi Uzunmo'ylov qo'ng'izlarining taksonomik reviziysi va zamonaliviy tur tarkibi ..... 118

**S.Sh.Axmadjonova**

Kolorado qo'ng'izi (Coleoptera, Chrysomelidae)ning ayrim biologik xususiyatlari ..... 122

**V.Y.Isaqov, X.V.Qoraboyev**

Tuproq va Indigofera tinctoria L. organlarida og'ir metallarning tarqalish va to'planish xususiyatlari ..... 125

---

**GEOGRAFIYA****M.N.Dehqonboyeva, X.A.Abduvealiyev**

Yer sig'imi tushunchasidan aholi zichligida foydalanish ..... 132

**X.Sh.Djo'rabyeva**

Farg'ona vodiysida an'anaviy suvdan foydalanish madaniyatining shakllanishiga ekologo-gyeografik omillarni ta'siri ..... 137

**N.O'.Komilova**

Xo'jalik yuritishdagi qadimgi tizimning etnoekologik mohiyati ..... 141

**A.A.Xamidov**

Farg'ona vodiysining landshaftlarini shakllanishiga litogen tuzilish va rel'efning ta'siri ..... 148

---

**QISHHLOQ XO'JALIGI****Q.A.Davronov, D.Q.Ibragimova, R.A.Iminchayev, Sh.A.Kuramatova**

"Avangard start", "Gulliver" "Antikolorad maks" preparatlarini g'o'za parvarishida qo'llash usullari va muddatlari ..... 153

**Sh.A.Kuramatova, D.Q.Ibragimova, R.A.Iminchayev**

Kungaboqar o'simligiga qo'llanilgan mineral va organik o'g'itlarni uning o'sishi, rivojlanishiga va hosildorligiga ta'siri (Farg'ona viloyati tuproq iqlim sharoitida) ..... 158

**Sh.I.Mamatojiyev, M.A.Gazihev**

Sabzavot ekinlari nafaqat oziq – ovqat, balki manzara hamdir ..... 164

**M.I.Aktamov, M.T.Isag'aliyev, B.M.Qo'chqorov**

Sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlarda suvdan oson eruvchi ionlar dinamikasi ..... 168

**R.Djurayev**

Urushdan keyingi yillarda chorva ozuqasi muammosi ..... 172

**R.Djurayev**

Chorvachilik va uning sovet davlati xalq xo'jaligida tutgan o'mni ..... 177

---

**ILMIY AXBOROT****D.O.Turdaliyev**

Maslenitsa bayrami Slavyan madaniyatida ma'jusiylik va xristian an'analarining aksi sifatida ..... 181



UO'K: 631.413.3

**SUG'ORILADIGAN O'TLOQI SAZ TUPROQLARDA SUVDA OSON ERUVCHI IONLAR  
DINAMIKASI**

**ДИНАМИКА ВОДНОРАСТВОРИМЫХ ИОНОВ В ОРОШАЕМЫХ ЛУГОВЫХ  
САЗАВЫХ ПОЧВ**

**DYNAMICS OF WATER-SOLUBLE IONS IN IRRIGATED MEADOW SASA SOILS**

Aktamov Muhammadno'monjon Iqrorjon o'g'li<sup>1</sup> 

<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti, tayanch doktorant

Isag'aliyev Murodjon To'ychiboyevich<sup>2</sup> 

<sup>2</sup>Farg'ona davlat universiteti, b.f.d., professor

Qo'chqorov Bobirbek Mamasamin o'g'li<sup>3</sup> 

<sup>3</sup>Farg'ona davlat universiteti, tayanch doktoran

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada Farg'ona vodlyida tarqalgan sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlaridagi suvda oson eruvchi ionlarning dehqonchilik ta'sirida o'zgarish dinamikasi o'rganilgan. Tuproq genetik qatlamlarida suvli so'rim tahili natijalariga ko'ra quruq qoldiq miqdori sho'rلانмаган guruhdan kuchsiz, o'ttacha va kuchli sho'rلانган guruh tomon transformatsiyalanayotganligi isbotlangan. Sug'oraladigan o'tloqi saz tuproqlarida sulfat ioni ustunlik qilishi hamda sho'rلانish bosimli sizot suvlar ta'sirida ekanligi isbotlangan.

**Annotation**

In this article the dynamics of water-soluble ions change in irrigated meadow saz soils of Fergana valley under the influence of farming is studied. According to the results of analysis of water extract in genetic horizons of meadow saz soils it is proved that the amount of dry residue is transformed from non-saline group to the group of weak, medium and strong salinisation. It is proved that sulphate ion dominates in irrigated meadow saz soils, and salinisation occurs under groundwater pressure.

**Abstract**

In this article the dynamics of water-soluble ions change in irrigated meadow saz soils of Fergana valley under the influence of farming is studied. According to the results of analysis of water extract in genetic horizons of meadow saz soils it is proved that the amount of dry residue is transformed from non-saline group to the group of weak, medium and strong salinisation. It is proved that sulphate ion dominates in irrigated meadow saz soils, and salinisation occurs under groundwater pressure.

**Kalit so'zlar:** suvli so'rim, quruq qoldiq, ionlar, tuzlar dinamikasi, sulfatli tuzlar, sho'rلانish.

**Ключевые слова:** водная вытяжка, сухой остаток, ионы, динамика солей, сульфатные соли, засоление.

**Key words:** water extraction, dry residue, ions, salt dynamics, sulfate salts, salinization.

**KIRISH**

Jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda ko'pchilik tuproqlar turli ta'sirlar natijasida bir qator o'zgarishlarga yuz tutgan. Ushbu o'zgarishlarga tuproqlardan dehqonchilikda foydalanish, ularda me'yordan ortiqcha miqdorda chorva mollarini boqish, karyerlar ochish va boshqalar sabab bo'lmoqda. Shuning uchun ham sug'oriladigan tuproqlarni geokimyoiy nuqtayi nazardan tadqiq qilish katta nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Qishloq xo'jaligida tuproqdan foydalilanilda uni paydo bo'lish, rivojlanish qonuniyatlarini albatta hisobga olish zarur. Har bir agrotexnologiya tuproqning ekologik, meliorativ va agrokimyoiy holatini yaxshilab, unumdorligini ko'tarib borishi lozim [1].

## QISHLOQ XO'JALIGI

Sho'rlangan tuproqlarga o'simliklar uchun zararli miqdorda mineral tuzlar mavjud bo'lgan tuproqlar kiradi. Qishloq xo'jaligi ekinlarining ezilishi profildagi tuz miqdori tuproq massasining 0,25% dan ortiq bo'lganda boshlanadi. Tuproqning chuqur namlanishi bo'limgagan qurg'oqchil cho'l va chala cho'l zonalarda tuzlarning to'planishi ularning biogen to'planishi, nurash, tuproq hosil bo'lishi, shuningdek impuls hosil bo'lishi (shamol o'tishi) natijasida sodir bo'lishi mumkin. Yarim cho'l va cho'l hududlarida natriy sulfatlari va xloridlari, gips va nitratlar hosil bo'lishi uchun qulay sharoitlar mavjud. Ba'zida soda hosil bo'lishi va sho'rланishning sodali turi bilan tuproqlarning shakllanishi mumkin. Sho'rlangan tuproqlar past, o'rtaligida va ko'p sho'rlangan, shuningdek, sho'r, sho'r, solodlarga bo'linadi. Bir oz sho'rlangan tuproqlarda suvda 0,25-0,4%, o'rtacha sho'rlanganda 0,4-0,7%, kuchli sho'rlanganda 0,7-0,1% bo'ladi [2].

Farg'ona vodiysida tarqalgan sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlarning ning bosimli sizot suvlari natijasida shakllangan o'tloqi saz tuproqlari sho'rланishga moyilligini inobatga olsak, tuzlar ximizmini, geokimiyoviy xususiyatlarini, biokimyoosini tadqiq etish biosferaning barqaror rivojlanishi va muhofazasida muhim tadqiqotlar qatoridan joy oladi.

## ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA

Tadqiqot obyekti sifatida Markaziy Farg'ona hududidagi rayonlar [3], Qoradaryo yoyilmasining tashqi qismida tarqalgan o'tloqi saz tuproqlari va ularda olib borilgan tadqiqotlar natijalari asos qilib olingan [4].

Namunalar tuproqshunoslik umumqabul qilingan usullar hamda Tuproqshunoslik va agrokimiyoviy tadqiqotlar institutining tahliliy markazida ishlab chiqilgan uslublar yordamida ("Markaziy Osiyo tuproqlari va o'simliklar qoplamini agrokimiyoviy tahlil qilish uslublari" (1977), Ye.Arinushkina "Tuproqlarni kimyoviy tahlil qilish" bo'yicha qo'llanma (1970), A.F.Vadyunina va Z.A.Korchaginalarning "Tuproqlarning fizik xossalalarini o'rganish uslublari" (1986)) tahlil qilingan.

**Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi.** Keyingi yillarda sug'orma dexkonchilikning jadal suratlar bila olib borilishi, qishloq xo'jaligida qo'llanilayogan mineral o'g'itlarni ilmiy asoslangan meyorlarda qo'llanilmayotganligi, sug'orish meyorlari hamda muddatlarini notug'ri tashkil qilinishi, kollektor zovurlar suvlari sathini ko'tarilishiga, bu esa albatta yer maydonlarining ikkilamchi sho'rланishga uchrashiga olib kelmoqda deyishimiz mumkin.

Sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlarda 2014-yilda Sh.S.Mansurov [4] olib borilgan tadqiqot ma'lumotlarida sho'rланmagan yer maydonlari 58,8%, kuchsiz sho'rlangan yerlar 31,0% va o'rtacha darajada sho'rlangan yerlar maydoni 10,2% tashkil etganligi aniqlangan. Shuningdek, 1991-yilda o'tkazilgan tadqiqot natijalarida sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlarda, sho'rланmagan yer maydonlari 82,4%, kuchsiz sho'rlangan yer maydonlari 17,6% tashkil etgan, 2001-yilgi tadqiqot natijalarida sho'rланmagan sug'oriladigan yer maydonlari 77,6% ni tashkil qilgan bo'lsa, kuchsiz sho'rlangan yerlar 22,4% tashkil etgan. Yuqoridaq ma'lumotlar qiyosiy tahlil qilinganda 2014-yilla sho'rланmagan sug'oriladigan yer maydonlari 1991-yilga nisbatan 23,6 % ga kamayganligini xulosa qilish mumkin (jadval).

Suvda oson eruvchi ionlar dinamikasi

Kesma №	Chuqurlik	Quruq goldiq, %	HCO <sub>3</sub> <sup>-</sup>	Cl <sup>-</sup>	SO <sub>4</sub> <sup>-2</sup>	Ca <sup>+2</sup>	Mg <sup>+2</sup>	Na <sup>+</sup>
Sug'oriladigan o'tloqi saz tuproq (1967-yil "Yer kadastro" SHK ma'lumotlari)								
26	0-30	0,186	0,019	0,017	0,101	-	-	-
	30-44	0,136	0,034	0,011	0,061	-	-	-
	44-54	0,126	0,036	0,011	0,050	-	-	-
	120-130	0,090	0,026	0,007	0,029	-	-	-
	140-150	0,068	0,025	0,003	0,023	-	-	-
38	0-15	0,095	0,046	0,007	0,034	-	-	-
	15-30	0,083	0,034	0,003	0,019	-	-	-
	30-49	0,077	0,033	0,003	0,021	-	-	-
	55-70	0,081	0,034	0,003	0,019	-	-	-
	80-90	0,090	0,034	0,003	0,019	-	-	-
	115-125	0,085	0,033	0,003	0,020	-	-	-
Sug'oriladigan o'tloqi saz tuproq (2014 yil Sh.S.Mansurov ma'lumotlari)								

## QISHLOQ XO'JALIGI

10	0-38	0,374	0,040	0,014	0,097	0,025	0,003	0,036
	38-57	0,385	0,027	0,015	0,147	0,035	-	0,090
	57-76	0,295	0,027	0,035	0,076	0,025	0,015	0,018
	76-110	0,190	0,040	0,018	0,047	0,025	-	0,021
	110-153	0,215	0,024	0,022	0,043	0,025	-	0,035
12	0-31	0,130	0,024	0,021	0,043	0,025	0,006	0,003
	31-56	0,115	0,027	0,007	0,047	0,020	0,003	0,008
	56-87	0,387	0,027	0,010	0,078	0,020	0,003	0,006
	87-124	0,105	0,027	0,007	0,043	0,020	0,003	0,006
	124-154	0,364	0,027	0,010	0,080	0,020	0,006	0,020
Sug'oriladigan o'tloqi saz tuproq (2023 yil M.Izag'aliyev, M. Aktamov ma'lumotlari)								
A2023/1	0-30	1,010	0,026	0,015	0,686	0,146	0,088	0,014
	30-45	1,238	0,027	0,019	0,873	0,181	0,115	0,015
	45-87	1,301	0,031	0,021	0,919	0,191	0,122	0,015
	87-135	1,276	0,031	0,022	0,891	0,197	0,111	0,016
	135-186	1,314	0,029	0,023	0,913	0,214	0,106	0,017
A2023/5	0-30	1,892	0,033	0,019	1,327	0,299	0,159	0,016
	30-43	2,348	0,034	0,021	1,689	0,352	0,217	0,020
	43-84	2,523	0,034	0,026	1,808	0,337	0,257	0,023
	84-127	2,501	0,039	0,025	1,773	0,386	0,219	0,022
	127-179	2,586	0,040	0,028	1,831	0,385	0,235	0,023

Tadqiqot olib borilgan sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlarning sho'rланish ximizmi to'g'risidagi ma'lumotlar yuqorida jadvalda keltirilgan bo'lib, bunga ko'ra hudud tuproqlari kuchsiz sho'rланган, ayrim kesma tuproqlarining paski qatlamlarida o'ttacha sho'rланган tuproqlar guruhini tashkil etadi, sho'rланish tipi sulfatli va xlorid-sulfatlidir. Quruq qoldiqning miqdoriga ko'ra kuchsiz sho'rланган, sulfatli sho'rланish tipidagi tuproqlarning haydov qatlamida 0,374%, xlor ioni 0,014% va sulfat ionni 0,097% ni tashkil etgan. Xlorid-sulfatli sho'rланish tipidagi kuchsiz sho'rланган tuproqlarning haydov qatlamida quruq qoldiqning miqdori 0,130-0,140% ni tashkil etib, xlor ioni 0,018-0,021% va sulfat ionni 0,043- 0,060% ni tashkil qilishi kuzatildi. 1967-yilda olib borilgan tadqiqot natijalarida ushbu o'rganilgan hudud asosan sho'rланмаган va kuchsiz sho'rланган tuproqlar guruhiga kiritilgan bo'lib, sho'rланмаган sulfatli sho'rланish tipidagi tuproqlarda quruq qoldiq miqdori 0,095%, xlor ionni 0,007% va sulfat ionni esa 0,034% ni tashkil etgan. Kuchsiz sho'rланган xlorid-sulfatli tipidagi tuproqlarning haydov qatlamida quruq qoldiq miqdori 0,286%, xlor ionni 0,017%, sulfat ionni esa 0,101% ni tashkil etgan [4].

Sho'rланishning biz o'rgangan sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlar tarkibida sulfat ionni miqdori ko'pchilikni tashkil qiladi. Birinchi kesma tarkibida sulfat ionni miqdori haydalma qatlamida nisbatan kam, aksincha 45-87 sm qatlamida o'zining maksimal darajasiga yetganini ko'rishimiz mumkin, uning miqdori 0-30 sm chuqurlikda ququq qoldiq 1,010%, sulfat ionni 0,686% va 45-87 sm chuquqrlik mos ravishda 1,301% va 0,919% ni tashkil qiladi. 135-186 sm chuquqrlikda quruq qoldiq 1,314% teng bo'lib, sulfat ionni 0,913% ni tashkil qildi. Ikkinci kesmaga keladigan bo'lsak, sulfat ionni miqdori ilyuvial qatlamda, ya'ni 127-179 sm chuquqrlikda o'zining maksimal darajasiga yetib, 1,831% ni tashkil qilgan. 1967-yil "Yer kadastiri" ma'lumotlarida haydov qatlamida sulfat ionni 0,186% quruq qoldiqdagi sulfat ionni miqdori 0,101% ni tashkil etgan bo'lsa, 2014-yilda olib borilgan tahlillarda uning miqdori huddi shu qatlam va quruq qoldiq 0,374%, sulfat tarkibida 0,097% ni tashkil qilgan[5].

Gidrokarbonat ioniga etibor beradigan bo'lsak, ilmiy izlanishlar olib borilgan barcha davirlarda ham uning miqdori  $\text{SO}_4^{2-}$  ioniga nisbatan kam o'zgargan.  $\text{HCO}_3^-$  ning tuproqdagagi ko'rsatgichi, namunalar natijasida olingan quruq qoldiq va uning qaysi qatlamdan olinganligiga mutanosib ravishda 0,017-0,40% tashkil qildi.

**QISHLOQ XO'JALIGI**

2014-yilda olib borgan kuzatishlarda har ikkala kesmalar tarkibida  $\text{Ca}^{+2}$  ioni miqdori quruq qoldiq miqdoriga mos ravishda o'rtacha 0,020-0,025% gacha o'zgarib turgan [4]. Biz tahlil olib borgan suvli so'rimi namunalari natijasidan kalsiy ionining miqdori qolgan barcha kationlardan nisbatan ko'p uchrab, tuproq genetik qatlamlarida mos ravishda 0,146% dan 0,383% gacha o'zgarib turishini aniqlandi. Yuqoridagi ko'rsatkichlarga tayangan holda kationlardan  $\text{Ca}^{+2}$  ioni miqdori keyingi o'n yillikda o'sish tendensyasini ko'rsatgan.

2014-yilda tahlil qilingan tuproq suvli so'rimi tarkibida  $\text{Na}^+$  ioni miqdori 0,020-0,036% oralig'ida bo'lgan, shu namunalar tarkibidagi  $\text{Mg}^{+2}$  ioni esa 0,003-0,006% ni tashkil qilgan. Bizning tadqiqotlar esa bu natjalarni aksini ko'rishimiz mumkin, ya'ni magniyning natriya nisbatan ustunlik qilib,  $\text{Mg}^{+2}$  ioni 0,088 dan 0,235% oralig'ida,  $\text{Na}^+$  ioni esa 0,014 dan 0,023% gacha o'zgarib turadi. Bu o'z navbatida suvda oson eruvchi ionlarning ta'sirida tuzlar ximizmini ham yillar davomida dinamik o'zgarishiga olib keladi.

**XULOSA**

Yuqorida bayon qilingan tahlillarga asoslangan holda tuproq tarkibidagi suvda oson eruvchi ionlar tarkibidagi  $\text{SO}_4^{2-}$  ioni miqdori dinamikasi 1967-yildan boshlab, 2023-yilga qadar quruq qoldiqlar miqdoriga mos ravishda 0,101% dan 1,831% gacha o'sish tendensyasini ko'rsatganligini xulosa qilish mumkin.

Quruq qoldiq miqdorining tuproq umumiyligi kesmasida tarqalish miqdorlariga e'tibor beradigan bo'lsak, bu ko'rsatkich ham keyingi 56 yil mobaynida xronologik o'sishni namoyon qiladi, ya'ni 0,186% dan 2,586% gacha ortadi. Bu esa o'z navbatida tuproqlarning sho'rlanish ximizmiga ham ta'sir etib, sho'rlanish darajasi oshib borayotganini anglatadi.

Olib borilgan tadqiqotlar natjalariga ko'ra 1967-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davr davomida tuproq suvli so'rimi tarkibidagi quqrug qoldiq miqdori 5,4-13,9 barobargacha ko'paygan, bu bosimli sizot suvlarini minerallashuviga ham bog'liq. Tuproq tarkibidagi quruq qoldiq miqdorining bunday tezlikda oshib borishiga sabab bo'luvchi omillarni aniqlash muhim amaliy va ilmiy ahamiyat kasb etadi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Sidikov S., Yunusova S., Normamatova Sh. Jadal rivojlangan dehqonchilik sharoitida tuproqlarni muhofaza qilish va unumdorligini oshirishning zamонавиyo yо'llari. International scientific journal science and innovation, Special Issue April 6, 2024.
2. Boymatov S., Rejabov M. Tuproqlarning sho'rlanishi va ishqoranishi. sho'rlangan tuproqlar. "Yangi O'zbekistonning umidli yoshlari", 1(4)-son, 2022.
3. Isag'aliyev M., Yuldashev G., Aktamov M., Qo'chqorov B. Sug'oriladigan tuproqlarda suvda oson eruvchi tuzlar geokimyosi. FDU Ilmiy xabarlar
4. Sh.Mansurov. Sharqi Farg'ona gidromorf tuproqlari va ularning unumdorligini dexqonchilik ta'sirida o'zgarishi. Dissertatsya: Tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy-tadqiqot instituti. Toshkent-2019.
5. Farg'ona viloyati "Yerkadastri" SHK ma'lumotlari 1967- yil.
- Axmedov X.A. Sug'orish melioratsiyasi. T.: O'qituvchi, 1977.
6. Юлдашев Г., Исагалиев М. Геохимия почв конусов выноса. Т.: Фан, 2012. – 160 с.
7. Yuldashev G., Zokirova S., Isag'aliyev M. Tuproqlar melioratsiyasi. T.: Universitet, 2014. 120 b.